IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

XURSHID DO‘STMUHAMMAD ROMANLARIDA MAJOZ UYG‘UNLIGI

Muallif	**QURBONOVA FERUZA ILHOMOVNA**
O’qish yoki ish joyi	**TIQXMMI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI QARSHI IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**
Qabul qilindi	**03.10.2023**
Nashr qilindi	**06.10.2023**

ANNOTATSIYA

Roman – odam va olam munosabatlarini o‘ziga xos yo‘sinda, serqatlam kompozitsion yaxlitlikda idrok etuvchi janr. Unda mohiyatan dunyo badiiy tajribalari sintezlashgan bo‘ladi. Zotan, hech bir romannavis izlanishlari faқat bir milliy adabiyot doirasida cheklanib qolmagan.

KALIT SO‘ZLAR

Mif, fantastika, detektivlik va ilmiylik.

ABSTRACT

The novel is a genre that perceives the relationship between man and the universe in a unique way, in a complex compositional whole. It is essentially a synthesis of world artistic experiences. Indeed, no novelist’s research has been limited to a single national literature.

KEY WORDS

Myth, fiction, detective and science

Vaqtni unitgan o‘zini ham unutadi. O‘zini unutgan odam mo‘ljalni, rejani, hisob-kitobni unutadi. Yashamayotgandek yashaydi[1], – deb yozadi muallif va romanda ham shu aqidaga tayanadi.

Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad “Teogeniya” (Gesiod), “Metamarfozalar”, “Qahramon ayollar” (Ovidiy), “Iliada” (Gomer) singari dostonlarni ishtiyoq bilan o‘qib o‘rgandi. Biroқ bu asarlarning turlicha jahoniy talqinlari Sharq-islom adabiy-estetik tafakkuri ta`sirida kamol topgan o‘zbek adibini qanoatlantirmadi. Shuning uchun ham, ma`bud Zevs va Sizif munosabatlari bilan bog‘liq an`anaviy mavzuni milliy fol’klor, mumtoz adabiyot an`analari, Sharqona e`tiqodiy asoslar negizida, jahon adabiyoti badiiy ifoda usullaridan keng foydalangan holda, mutlaqo yangicha poetik tahlil va tadqiq qilishga qo‘l urib, “Donishmand Sizif” nomli roman yaratdi.

Roman – odam va olam munosabatlarini o‘ziga xos yo‘sinda, serqatlam kompozitsion yaxlitlikda idrok etuvchi janr. Unda mohiyatan dunyo badiiy tajribalari sintezlashgan bo‘ladi. Zotan, hech bir romannavis izlanishlari faqat bir milliy adabiyot doirasida cheklanib qolmagan. Romaniy tafakkur poetik ifodasi badiiy xronotopning uch tarkibli zamon-makon shakllari ishtiroki – “xronotop qopqasi orqali”[2]amalga oshadi. Shu bois, janrda kechadigan sinkretizm, sintetizm, differentsiatsion va modifikatsion jarayonlar hamisha tarixiy poetika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mustaqillik davrida tarixiy-madaniy, ijtimoiy-ma`rifiy va psixologik jihatdan qayta uyg‘onib, o‘z tarixiy asoslariga qaytayotgan milliy adabiy-estetik tafakkur roman doirasida zamonaviylashish sari

[1] Do’stmuhammad Xurshid.Donishmand Sizif.Roman. – T.:O’zbekiston NMIU, 2016. 283-б

[2] Baxtin M.Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikada ocherklar.Rus tilidan U. Jo’raqulov tarjimasi– T.: Akademnashr, 2015. – B.43.

harakatlanmoqda. Janr amaliyotida kechayotgan estetik yangilanishlarga tayanib, aytish mumkinki, postsovet makonidagi milliy romanlar endilikda, taqlid bosqichidan asta-sekin sintetizm va differentsiatsiya jarayonlariga o‘tmoqda. Milliy roman janriy belgilari, kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar olami, turfa motivlarga murojaat etish yo‘sinlari, uslubi tinimsiz tozarish va yangilanish og‘ushida ekani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Ammo kanonlashuv mexanizmining ishga tushganiga ham ancha bo‘ldi. Jumladan, roman o‘ziga nisbatan kichikroq janrlar va boshqa badiiy birliklarni bemalol “hazm” qilish orқali sintetik mohiyat kasb etmoqda. Milliy roman ko‘plab janrlarga xos xususiyatlarni o‘z tarkibiga singdirib olayotgan ekan, bunday sinkretik jarayon uning sintetik bosқichda ekani va ichki tabiatida poetik tarmoқlanish paydo bo‘lishi tabiiyligini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos D.To‘rayev “XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida ham mifologiyadan foydalanish, xalq og‘zaki ijodiga qahramonlarni real obrazlara onlantirishga urinishlar bo‘lgani”[3] ni qaydi etadi. Jadid adabiyoti ijodkorlar tomonidan yaratilgan “Qiyomat” (Fitrat), , “Yorqinoy” (CHo‘lpon) singari asarlarda xalq og‘zaki ijodi motivlari va SHarq mifologoyasidan foydalanilganligi ko‘rsatgan munaqqid, shoir Asqar Qosim tomonidan Esxilning “Zanjirbanb Prometey” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilish asnosida “Samo sirlari” dostonining yaratilganligini esga olib o‘tadi.

Ma`lumki, janrning har bir ichki shakllariga xos muayyan belgi-sifatlar ham sekin-asta oydinlashmoqda. Afsuski, shakllanayotgan yangi kanonlarni yaxlit tasavvur etishga imkon beruvchi umumlashma xarakterdagi tadqiqotlar yuzaga kelmadi. Bizningcha, o‘zbek romani sintetik taraqqiyoti ayni bosqichidagi romannavislarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish imkonini beradi: 1. Poetik tafakkuri taqlid bosqichi bilan bilvosita aloqador adiblar. Ular roman shakli, mazmuni va poetik ifoda jihatlarida o‘zlari taqlid qilayotgan ob`ektdan uncha yiroqlashmagan ijodkorlardir. 2. Poetik tafakkurida sof germenevtik munosabat yetakchilik qiluvchi adiblar. Ular namuna-obyektini o‘ziga maqbul yo‘sin va badiiy-estetik niyat ijrosiga muvofiq shakl va mazmunda yangilashni uddalashmoқda. Ta`kidlash o‘rinliki, biz ikkinchi guruhga mansub sanagan adiblargina milliy romanning yangi ichki shakllari, betakror poetik ifoda yo‘sinlari yuzaga kelishiga munosib ulush qo‘shmoqda. Yangilanayotgan milliy romanlar sinkretizmida Qur`oni karimda keluvchi voqealar (jannat hayoti, bashariyat vakillari yaratilishi, Hobil va Qobil qissasi, Nuh alayhissalom to‘foni voqeasi kabi) hamda ularning miflashgan talqinlarida mujassam ilohiy ibrat birlamchi manba vazifasini o‘tamoqda. Bu tipdagi yangilanishlar namuna-ob`ektiga madaniy munosabat ustuvorligi jihatdan mohiyatan an`anaviydir. O‘zbek romanlarining “Donishmand Sizif” (X.Do‘stmuhammad) kabi ayrim namunalarida qadim Yunon adabiy an`analariga xos syujet, kompozitsiya, obraz, motiv va detallarning ilg‘or Yevropa romanlari bilan o‘zaro uyg‘unlashib, islomiy negizda yangicha talqin qilinishi kuzatilmoqda. Zamon va makonning mustaqillik davri kesimida milliy roman sintetik bosqichi ijodkorning obyekt-namunaga munosabati, poetik mahorati, uni qanday shakl va yo‘sinda badiiy talqin etishiga ko‘ra muttasil o‘zgarib, yangilanib bormoqda. Shu ma`noda, hozircha uning qay tartib va yo‘sinlarda kechayotgani, qardosh adabiyotlardagi ayni tipdagi jarayonlar bilan nechog‘lik tutashligini aniqlash ancha mushkul. Bu hol maxsus yondashuv usullarini talab etadi va monografiyaning obyekti va maqsadiga kirmaydi. Shunisi aniqki, zamonaviy o‘zbek romanlari uchun muayyan xududiy adabiyot uzil-kesil “namuna” vazifasini o‘tayotgani yo‘q. Zotan, sintetizm tabiatan muayyan madaniy-tarixiy, badiiy-estetik kanonlar doirasi bilan cheklanuvchi sun`iy hodisa

[3] To’rayev D Sizif rivoyati o’zbek olimlari diqqatida/ Ma’naviy olam talqinlari. T.”Akadem nashr”, 2020. 54-b

emas. U mohiyatan ulkan қamrovli, umuminsoniy poetik tafakkur mahsulidir. Filologiya fanlari doktori U.Jo‘raqulov “Xamsa” xronotopi badiiy sintez hodisasi ekanini ishonchli dalillashga muvaffaq bo‘lgani ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi[4] . Istiqlol davrida yuzaga kelgan A.Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, “Rang va mehvar”, “Zarradagi olam”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, “Donishmand Sizif”, N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, U.Hamdamning “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Yo‘l”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik” singari romanlarda umumturkiy va jahon adabiyotida sayqal topgan qadimiy mavzularga murojaat қilish, obraz, xarakter, portetlar tasvirida psixologizm va majoz uyg‘unligi kuchaydi. So‘z nafosati hamda ma`no serqatlamligiga e`tibor ortdi. Xarakter yaratishda yangicha ijodiy izlanishlar olib borilganligi natijasida bir-biriniga o’xshamaydigan obrazlar paydo bo‘ldi. Xurshid Do‘stmuhammadning Sizif, Fozilbek, Qadriya, Zar bobo (“Bozor”) kabi qaxramonlarining xarakteri, portretti, psixologiyasi o‘tgan asrda yaratilgan sho‘ro davriga xos qaxramonlardan tamomila farqlanadi. Masalan, Zar boboning o‘tmishi, oilasi, yaqinlari, hayot tarzi haqida ma`lumot berilmaydi, ammo kitobxon o‘ziga juda yaqin tutadi. Gavjum bozorda borayotgan Fozilbek kutilmaganda Qadriyani uchratib qoladi.Qadriyaning portreti asarda shunday chizilgan: “Xushruygina qiz e`tiborini tortdi. Oppoqqina ekan-a!, deb yubordi u beixtiyor ovoz chiqarb, shuday dedi-yu, chamasi notanish qizning chehrasdagi nurli oqlik uning ko‘ngliga to‘laligicha ko‘chdi-qoldi. Azbaroyi entikib ketdi. Hatto begona qizga ochiq-oydin baqrayishdan o‘zini tiya olmadi”[5]. Ko‘rinadik, yozuvchi Qadriya Fozilbek bilan ilk ko‘rishgan chog‘ilayoq yigitning diqqatini o‘ziga tortadi. Anchayin kamsuqum, so‘zlarini tortinibgina aytadigan, ichidagi go‘zallik yuz-ko‘zlarida aks berib turgan, ko‘ngli siniq, biroz parishonhol ko‘ringan bu qiz tashқi ko‘rinishidan shunday ammo, uning ichki olami, yon atrofga bo‘lgan munosabati, o‘zin tutishi, odamlarga qo‘yadigan talabi, nimalarni qadrlashi, nima maqsadda yashayotgani, kimligi va qandayligi kitobxonni qiziqtirib qo‘yadi. Qadriyaning portretini chizishda muallif uning o‘ziga xosligini har safar to‘ldirib boshni ma`qul ko‘radi. Qizga xos bo‘lgan sharqona hayo, odob, o‘zini boshqalardan tortib turishi, boshqa bir olamda yashashi kabilar uning yuz-ko‘zida aks etgan ifoda, siniq tabassumi, shikasta ovozi orqali to‘liq namoyon bo‘ladi. Qadriya portretini ichdan nurlantirib turgan narsa islomiy tafakkur bilan bog‘liq.

Badiiy asarlarda bugun janrlararo uzviy ichki aloqadorlik: mif, fantastika, detektivlik va ilmiylik sintezlashib, sinkretiklashib ketmoqda. Adabiyotshunoslikda ayni hodisa “postmodern” metodiga asoslangan intilishlar sifatida ham baholandi. Shubhasiz, yuqorida sanalgan yozuvchilar muttasil o‘qib-o‘rganadi, izlanadi, odam va olamni sinchkovlik bilan kuzatib, ko‘rgan, bilgan, his qilgan va tasavvur, taxayyul puchmoqlarida jilvalangan narsa-hodisalar, kechinmalar haqida tinimsiz muhokama-mushohada қiladi. Shu ma`noda, ularning XX asr jahon adabiyotidagi yangicha qarashlar, xususan, postmodern adabiyoti namunalari bilan tanish ekanligiga shubha yo‘q.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Do‘stmuhammad X. Qissalar. T.: Sharq NMAKBT, 2011. 512 b.
2. Do‘stmuhammad X. Qissalar. T.: Yangi asr avlodi, 2021. 798 b.
3. Do‘stmuxammad X. Roman. T.: Yangi asr avlodi, 2021. 734 b.

[4] Jo’raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. – Filol. fan. d-ri... diss. – T., 2017. – B.264.
[5] Do’stmuhammad Xurshid.Bozor/Roman. – T.:Sharq NMK, 2000.36-б

4. Do‘stmuhammad Xurshid. Bozor. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni bosh tahririyati, 2000. – B. 192.
5. Do‘stmuhammad Xurshid. Kuza // “Sharq yulduzi”, 2010, № 1. – B. 23-75.
6. Do‘stmuhammad Xurshid. Najot nafratdami yo... muhabbatda! / “Tafakkur”, 1996, № 1-son. – B. 74-80.

WORDLY
KNOWLEDGE